

BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA TADQIQOTCHILIK LAYOQATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869032>

M.A.Norqo'ziyeva

Ilmiy raxbar:p.f.f.d.PhD

Komilova Shaxnoza Zafar qizi

JDPU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistri

Annotatsiya.

Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida tadqiqotchilik layoqatini shakllantirish metodikasining ilmiy-amaliy asoslari mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar.

bo'lajak pedagog, tarbiyaviy faoliyat, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan integratsiyasi, tabiiy layoqat, ijtimoiy layoqat, qobiliyat, maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagogik maslahat, jamoaviy, individual, anatomic, fiziologik, ruhiy xususiyatlari.

НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ У ПЕДАГОГОВ БУДУЩИХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация.

В данной статье раскрывается содержание научно-практической основы методики формирования исследовательской способности у воспитателей будущей дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова.

будущий педагог, воспитательная деятельность, интеграция современных педагогических технологий, природная способность, социальная способность, способность, организация дошкольного образования, педагогический совет, коллектив, личность, анатомические, физиологические, психические особенности.

SCIENTIFIC AND PRACTICAL BASES OF THE METHODOLOGY FOR FORMING RESEARCH SKILLS IN TEACHERS OF FUTURE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Abstract.

This article reveals the content of the scientific and practical basis of the methodology for the formation of research ability among educators of a future preschool educational organization.

Keywords.

future teacher, educational activity, integration of modern pedagogical technologies, natural ability, social ability, ability, organization of preschool education, pedagogical council, team, personality, anatomical, physiological, mental features.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquqtartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlari asosida yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni takomillashtirishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari sifat darajasini umume'tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq tubdan yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga zamonaviy shart-sharoit oliy pedagog ta'limni isloh qilishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan

holda pedagog kadrlar tayyorlashning yangi tizimini joriy etishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lif va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish"⁵³ kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, mактабгача та'lif mutaxassislarni tayyorlashda milliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan integratsiyasini takomillashtirishni taqozo etadi.

Zamonaviy ta'lifning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni taylorashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning tadqiqotchilik layoqati darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida layoqatlik tushunchasi pedagogning ta'lif-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo'lish degan xulosaga kelinadi. "Layoqat" so'zining ma'nosi asab tizimining ba'zi genetik determinlashgan anatom - fiziologik xususiyati bo'lib, bu kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishning dastlabki yakka tug'ma tabiiy zaminidir. **Layoqat** malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatları qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Ta'lif va tarbiya jarayonida yoshlar ajodolar tomonidan to'plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o'zining munosib o'rnnini egallashi, salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o'zida yangicha bilim berish, o'zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olish ko'nikmalari tarkib topgan bo'lishi lozim.

Hozirgi davrda davlatmiz rahbariyati tomonidan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini mustahkamlash maqsadida yoshlarning ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishlari uchun keng imkoniyatlar ochib berildi. Ma'lumki mamlakat taraqqiyoti jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi va ilmiy salohiyati bilan belgilanadi.

⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

Ilmiy tadqiqot jarayonida hissiy idrok etish, abstrakt tafakkur, amalda sinab ko'rish o'z ifodasini topadi. Ilmiy tadqiqot jarayoni yaxlit tizimga ega bo'lib, asosan uzuksiz ta'lim jarayonida shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Uning dastlabki bosqichi maktab davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilarda ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha boshlang'ich tushunchalar shakllanadi. Keyingi bosqichlarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi. Tizimning yuqori bosqichlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishning amaliy tatbiqini ifodalaydi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda oliv ta'lim asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi va unda talabalar tadqiqotchilik faoliyatlarining aniq yo'nalishlariga ega bo'ladilar.

Yoshlarni ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirish, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi o'tmishda Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham keng yoritilgan bo'lib, bu borada I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» nomli kitobida quyidagicha izohlagan: “.....zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy - ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solganini g'urur bilan ta'kidlash lozim”. Bu borada Forobiy «Baxt saodatga erishuv to'g'risida» asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr yuritadi. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu -olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgatgach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat - o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda, deb biladi. Ilmlarni egallahsha esa shaxsda intilish, qiziqish va muhit bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Bilim olishda tushunib, o'rganish, ilmiy tadqiqotching poklikka rivojiga etishiga alohida e'tibor beradi, jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'liq, degan g'oyani ilgari suradi. U fan sohasidagi yodgorliklarni, ilmiy bilimlarga oid qoldirilgan barcha boyliklarni qunt bilan o'rganishga da'vat etadi.

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, shuni aytishimiz joizki, talaba - yoshlar dalillash, asoslash, ziddiyatsizlik, istisno, ayniyat qonunlarini puxta bilmog'i, shundan so'nggina ilmiy asoslangan to'g'ri fikr yurita olmog'i mumkin.

Demak, talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish samaradorligi talaba tafakkuri darajasiga bog'liq bo'lib, tafakkur - ilmiy asoslangan, mustaqil, mantiqiy bo'lmosh lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Davlat maktabgacha ta'lif muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 28.02.2018 y. PQ-3571.
2. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lif tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.04.2018 y. PQ-3651.
3. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lif tizimini takomillashtirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida. 08.08.2018 y. PQ-3904.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent.: "O'zbekiston". 2017.-488 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. T.: Adolat. 2017
7. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
8. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. -М., Аспект Пресс, 2002. - 383с.
9. Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan
10. X.A.Meliyev, G.I.Xasanova. "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish". O`quv qo'llanma. Toshkent. 2022 yil. 170 bet.
11. X.A.Meliyev, M.X.Qilichova. "Maktabgacha pedagogika". Toshkent. Darslik. 2022 yil. 471 bet.
12. X.A.Meliyev, O.Jamoldinova, K.Riskulova. "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati". O`quv qo'llanma. Toshkent. 2021 yil. 284 bet.

INTERNET RESURSLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi: www.edu.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi: www.uzedu.uz
3. www.eduportal.uz, www.multimedia.uz.